

## Abulg'ozzi Bahodirxon



# Abulg'ozzi Bahodirxon

(1603 yil 23 avgust, Urganch – 1663 yil aprel, Xiva)

(1644-1663)

Xiva xoni, **shayboniylar sulolasidan**, tarixchi va tabib. Abulg'ozzi Bahodirxonning og'alari **Habash sulton** va **Elbars sulton** otalari **Arab Muhammadxonni** yengib, uni Qum qal'asiga qamadilar. Otasining tarafdorlari bo'lgan katta og'asi Asfandiyor Eronga, Abulg'ozzi Bahodirxon esa Buxoroga **Imomqulixon** huzuriga qochdi. 1623 yilda akasi **Asfandiyorxon** Xiva taxtini egallagach, Abulg'ozzi Bahodirxon Urganchga hokim qilib tayinlandi. Lekin **Asfandiyorxon** bilan o'rtalarida nizo chiqib, Abulg'ozzi Bahodirxon 1627 yilda qozoq xoni **Eshimxon** huzuriga qochdi; keyin ikki yil Toshkent hokimi **Tursunxon** bilan birga bo'ldi. Ko'p o'tmay, turkmanlarning taklifiga binoan u yana Xorazmga qaytdi. **Asfandiyor** uni Xiva hokimi qilib tayinlashga majbur bo'ldi. 1629 yilda turkmanlar Eronga tobe bo'lgan Niso va Dorunni bosib oldilar. **Asfandiyorxon** Eron bilan munosabatlarning tamoman jiddiylashib ketishidan cho'chib, aybni Abulg'ozzi Bahodirxonga to'nkadi va uni 1630 yil qishida Eron podshohi huzuriga garov tariqasida yubordi. Abulg'ozzi Bahodirxon shu tariqa 10 yil Eronda, Isfaxon yaqinidagi Taborak qal'asida qamoqda yashadi. 1639 yilning yozida u tutqunlikdan qochishga muvaffaq bo'ldi. Abulg'ozzi Bahodirxon bir necha yil taxt uchun kurash olib borib, nihoyat 1644 yilda hokimiyatni o'g'li **Anushaxonga** topshirdi. Abulg'ozzi Buxoro xoni **Abdulaziz** bilan **Subhonqulixon** o'rtasidagi raqobatga ham aralashdi, chunki, **Subhonqulixon** Abulg'ozzining jiyaniga uylangan edi. Buxoro xoni bilan sulh tuzishga erishildi. Shunga qaramay, Abulg'ozzixon 1663 yili yetti marta Buxoro xonligi ustiga yurish uyushtirdi: Qorako'l, Chorjo'y, Vardonze tumanlarini talon-taroj qildi. U Buxoro xoni **Abdulazizxon** davrida Buxoroga ko'pgina talonchilik yurishlarini olib borgan. Uning

bosqinchilik yurishlari Buxoro xonligining siyosiy va iqtisodiy ahvoriga yomon ta'sir ko'rsatdi va ijtimoiy-siyosiy ahvolni murakkablashtirib yubordi. Abulg'ozu qabila boshliqlari nufuzini oshirish bilan ularning markaziy hokimiyatga qarshi xatti-harakatlariga barham bermoqchi bo'ldi. U xonlikdagi barcha qabilalarni to'rt guruhga bo'ldi: qiyot-qo'ng'iroq, uyg'ur-nayman, qang'li-qipchoq, nukuz-mang'it. Bunda qabilalarning urf-odatlarini, turmush tarzi va qarindoshchilik aloqalari hamda joylashgan yeri hisobga olindi. Mazkur to'rt guruh yana o'n to'rt mayda urug'lar ham qo'shilgan. Har bir qabilaviy guruhga bog'liq – inoq tayinlanib, xon shu inoq orqali qabilaga tegishli masalalarni hal qilgan. Inoqlar xonning eng yaqin maslahatchisi sifatida saroyda istiqomat qilganlar. Abulg'ozu Bahodirxon saroyida xon hashami 32 qabila boshlig'i – inoqlardan iborat edi.

Abulg'ozu Bahodirxon yirik tarixchi olim sifatida ham e'tiborga sazovor. Uning 9 bobdan iborat "*Shajarai Turk*" hamda "*Shajarai tarokima*" ("Turkmanlar shajarasi") asarlari O'zbekiston, umuman O'rta Osiyo tarixiga oid qimmatli manbalardan hisoblanadi. Abulg'ozixon "*Shajarai turk*" asari bilan «*Xorazm tarixchilik maktabi*»ga asos solgan. Abulg'ozu Bahodirxon tibbiyot ilmiga oid "*Manofiul inson*" ("Insonga foydali tadbirlar") nomli asar ham yozgan.

2023-11-05 18:20:26